

ALISHER NAVOIY VA FARIDIDDIN ATTOR ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

(“Lison ut-tayr” va “Mantiq ut-tayr” dostonlarining hamd,na’t va munajat qismi asosida)

Abdurashitova Uruk

*Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotining ikki yirik vakili — Farididdin Attor va Alisher Navoiy ijodidagi “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” asarlari qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganiladi. Asosiy e’tibor mazkur asarlarning g‘oyaviy yo‘nalishi, tasavvufiy mazmuni, badiiy xususiyatlari hamda syujet qurilishiga qaratiladi. Tahlil natijasida Navoiyning asari Attor asarining oddiy tarjimai emas, balki mustaqil va original badiiy hodisa ekanligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Attor, Navoiy, tasavvuf, “Lison ut-tayr”, “Mantiq ut-tayr”, hamd,na’t, munajat, qiyosiy tahlil.*

Аннотация: *В данной статье на сравнительно-аналитической основе исследуются произведения “Мантик ут-тайр” и “Лисон ут-тайр” Фаридиддина Аттара и Алишера Навои, двух крупнейших представителей восточной классической литературы. Основное внимание уделено идейной направленности, мистическому содержанию, художественным особенностям и сюжетному построению этих произведений. В результате анализа исходят из того, что творчество Навои представляет собой не простой перевод творчества Аттара, а самостоятельное и оригинальное художественное событие.*

Ключевые слова: *Аттар, Навои, Суфизм, “Лисон ут-тайр”, “Мантик ут-тайр”, хвала, молитва, сравнительный анализ.*

Abstrakt: *In this article, the works “Mantiq ut-tayr” and “Lison ut-tayr” by Farididdin Attar and Alisher Navoi, two major representatives of Eastern classical literature, are studied on a comparative and analytical basis. The main attention is paid to the ideological direction, mystical content, artistic features and plot construction of these works. As a result of the analysis, it is based on the fact that Navoi’s work is not a simple translation of Attar’s work, but an independent and original artistic event.*

Keywords: *Attar, Navoi, Sufism, “Lison ut-tayr”, “Mantiq ut-tayr”, praise, prayer, comparative analysis.*

Sharq mumtoz adabiyotida tasavvufiy ruhdagi asarlar alohida o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishda Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari eng yuksak namunalar hisoblanadi. Ushbu asarlar orqali insonning ma’naviy kamolot sari yo‘li, nafs bilan kurashi va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni



ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Yevropa sharqshunosi E.E. Bertels o‘z tadqiqotida Navoiyning “Lison ut-tayr” asari Attorning “Mantiq ut-tayr”iga bevosita bog‘liq bo‘lsa-da, uni tarjima sifatida baholash noto‘g‘ri ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu asar mustaqil badiiy hodisa bo‘lib, unda Navoiy o‘z ijodiy yondashuvini namoyon etadi. Har ikki asarning markazida tasavvufiy g‘oya — insonning Haqqa yetishish yo‘li turadi. Qushlar obrazi orqali inson ruhining kamolot bosqichlari ifodalanadi. Qushlarning Simurg‘ni izlash yo‘li aslida insonning o‘zligini anglash jarayonidir. Attorda bu jarayon nihoyatda keskin va falsafiy chuqurlikda beriladi. U insonni o‘z “men”idan butunlay voz kechishga chorlaydi. Navoiy esa ushbu g‘oyani yanada tizimli, didaktik va axloqiy ruhda talqin etadi. Uning asarida nafaqat tasavvufiy, balki tarbiyaviy jihatlar ham kuchli. “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlarining syujeti umumiy jihatdan o‘xshash: qushlar jam bo‘ladi; Hudhud yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida chiqadi; Simurg‘ni izlash safariga chiqiladi; sinovlar va to‘siqlar orqali o‘tiladi; yakunda haqiqat anglanadi, biroq Navoiy bu syujetni aynan takrorlamaydi. U quyidagi jihatlarida yangilik kiritadi: hikoyalar tizimini kengaytiradi, ba’zi epizodlarni qayta ishlaydi, o‘z davri ruhini aks ettiradi. Natijada, asar mazmunan boyiydi va milliy tus oladi. Bu kabi ko‘plab farqli jihatlar har ikkala asarning tarkibiy tuzilishi va hamd, na’t, munojot qisimlarida ham ko‘rib chiqishimiz mumkin.

“Lison ut-tayr” 3598 baytni o‘z ichiga oluvchi 193 bob 63 hikoyatdan tashkil topgan. Doston umumiy tuzilishiga ko‘ra muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Umumiy muqaddima ham o‘z navbatida hamd, munojot, payg‘ambar Muhammad (s.a.v) va uning chahoryorlariga bag‘ishlangan na’tlar kabi an’anaviy qism va asosiy qissaga kirish vazifasini o‘tovchi Farididdin Attor va uning “Mantiq ut-tayr” dostoniga bag‘ishlangan qisimlarga bo‘linadi.

Muqaddima:

- Mehribon va rahmli Allohning madhi;
- Munojot;
- Na’t:

-Muhammad s.a.v madhi;

-U payg‘ambarlik oftobining anqo qushining balandparvozligi va haqiqiy mahbub visoliga yetib qush tili bilan so‘zlashgani va sirlashgani;

-Abu Bakir Siddiq ta’rifida (Abu Bakir Siddiq hayotiga doir hikoyat keltiradi);

-Hazrati Umar vasfida (Umar hayotiga oid hikoyat keltiradi);

-Usmon Zunnurayn shonida (Usmon hayotiga oid hikoyat keltiradi);

-Hazrati Ali maqtovida (Ali hayotiga oid hikoyat keltiradi);

- SHayx Farididdin Attor madhi;

SHundan so‘ng asosiy qisimga kiriladi. Navoiy asosiy qisimni qushlarning o‘rin talashib bir-birlari bilan nizo qilishidan boshlaydi.





“Mantiq ut-tayr” taxminan 4500 misradan iborat bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Umumiy muqaddima hamd, na‘t. Asosiy qismda esa 45 maqola keltirilgan.

Muqaddima:

- Ulug‘vor va qudrat sohibi Alloh Taolo madhida;
- Ojiz va dilxasta odam hikoyati keltiriladi;
- Na‘t:
 - Muhammad s.a.v na‘tida;
 - Rasul sallallahu alayhi vassallamning shafolatxonligi;
 - Yosh bolasi suvga tushgan ona hikoyati;
 - Abu Bakir Siddiq madhida;
 - Umar Foruq vasfida;
 - Usmon madhida;
 - Amir al-mo‘minin Ali madhida;
 - Taassub tanqidida;
 - Umar Roziyallohu anahuning Uvays bilan suhbat;
 - Ali Karamullhning o‘z qotiliga lutfu marhamati;
 - Alining quduqqa sirrini aytganda, quduq suvi qonga aylangani;
 - Bilolning ahvoli;
 - CHohor yorlarning jon fido qilishdagi ittifoqi;
 - Payg‘ambar s.a.v shifoati.

SHundan keyin asosiy qismga kiriladi. Asosiy qism Attor asarida qushlarning si fati va xitobi bilan boshlanadi.

Yana shuni aytish kerakki, Navoiy “Lison ut-tayr”ga 63 ta hikoyatni kiritgan. Umumiy soni esa Attornikiga qaraganda juda kam. Hikoyatlarning faqat 12 tasigina “Mantiq ut-tayr”ga tegishli hikoyatlar bayonidir, qolgan 51 tasi yangilik. Binobarin, hikoyatlar umumiy sonining 81% ni Navoiyning orginal ijod mahsuli sanash mumkin va aytish mumkinki, tafsilotlar bayonida “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr”da umumiy nuqtalar juda kam.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Farididdin Attor va Alisher Navoiy asarlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar ularning umumiy tasavvufiy asosga ega ekanini ko‘rsatsa, farqlar Navoiyning ijodiy mustaqilligini ochib beradi. “Lison ut-tayr” Attor asarining tarjimasini emas, balki uning ijodiy talqini va yangi bosqichdagi rivojidir. Navoiy Attor an‘analarini davom ettirgan holda, ularni boyitgan va turkiy adabiyotda yangi badiiy uflarni ochgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. E. Bertels. Navoiy va Attor. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.





2.SH.Arifboyev. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostoni va unga ishlangan miniatyuralar,2025

3.Alisher Navoiy.Lison ut-tayr.

4.Farididdin Attor.Mantiq ut-tayr.

